INKLYUZIV OLIY TA’LIMNING MOHIYATI HAMDA UNING AYRIM HUQUQIY JIHATLARI

Iroda Erkin qizi Islomova
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy g‘oyasi inson qadrini ulug‘lash hamda uning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganligi ayni haqiqat. Xususan, har bir shaxsning sifatli va kafolatlangan ta’lim olishi ta’lim siyosatining bosh mezoniga aylandi deb bemalol aytish mumkin. Chunki ta’lim sohasida, jumladan, inklyuziv ta’limni ta’minlash sohasida bir qator huquqiy asoslar qabul qilinganli ta’limda tenglikni ta’minlanishiga, ta’limning yangi bosqichga chiqishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada inklyuziv oliy ta’lim tushunchasi hamda uning yuridik tabiatiga oid muhim masalalar ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, oliy ta’lim, inklyuziv ta’lim,alohida ehtiyojli shaxslar,nogironligi bo‘lgan shaxslar, ta’lim shakli, ta’lim tizimi, ta’lim prinsipi

ABSTRACT

It is true that the main idea of the reforms carried out in our country in recent years has been to glorify human dignity and ensure its rights and freedoms. In particular, it can be safely said that the provision of quality and guaranteed education to each person has become the main criterion of educational policy. Because the adoption of a number of legal frameworks in the field of education, including in the field of ensuring inclusive education, is contributing to ensuring equality in education and bringing education to a new level. This article analyzes important issues related to the concept of inclusive higher education and its legal nature from a scientific and legal perspective.

Keywords: education, higher education, inclusive education, individuals with special needs, individuals with disabilities, form of education, education system, principle of education

АННОТАЦИЯ

Верно, что основная идея реформ, проводимых в нашей стране в последние годы, направлена на прославление человеческого достоинства и обеспечение его прав и свобод. В частности, можно смело сказать, что предоставление качественного и

гарантированного образования каждому человеку стало главным критерием образовательной политики. Ведь принятие ряда правовых основ в сфере образования, в том числе в сфере обеспечения инклюзивного образования, способствует обеспечению равенства в образовании и выводу образования на новый уровень. В данной статье анализируется понятие инклюзивного высшего образования и важные вопросы, связанные с его правовой природой с научно-правовой точки зрения.

Ключевые слова: образование, высшее образование, инклюзивное образование, лица с особыми потребностями, лица с ограниченными возможностями, форма обучения, система образования, принцип образования

Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta’minlash ko‘plab davlatlar siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Xususan, inson huquqlari tizimida shaxsning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday mamlakatning barqaror va ilg‘or taraqqiyoti bevosita aholining bilim saviyasi va intellektual salohiyatiga bog‘liqdir. Shu sababli, ta’lim siyosatida har bir shaxs uchun teng sharoitlarni yaratish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu holat esa, davlatlardan ta’lim tizimida inklyuzivlikni keng joriy etishga qaratilgan aniq va samarali choralarni ko‘rishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda huquqiy mexanizmlarning milliy va xalqaro miqyosda shakllanishi inklyuziv ta’limning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishni ta’lim tizimining ajralmas bo‘g‘iniga aylantirmoqda.

Inklyuziv ta’lim masalasi bir qator xalqaro hujjatlarda, milliy qonunchiligimizda hamda olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilingan masalalardan biridir. Quyida shu inklyuziv ta’lim tushunchasini ushbu manbalar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, 1993-yilda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari bo‘yicha asosiy kompleks hujjat – Nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirishning standart qoidalari qabul qilindi.[3] Mazkur hujjatda keltirilgan 6-qoida ta’limga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Davlatlar integratsiyalashgan tuzilmalarda nogironligi bo‘lgan bolalar, yoshlar hamda kattalar uchun boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’limda teng imkoniyatlar tamoyilini tan olishlari, ularning ta’limini umumiy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lishini ta’minlashlari kerakligi belgilandi.

1994-yil 7-10-iyun kunlari Ispaniyaning Salamanka shahrida bo‘lib o‘tgan “Alohida ehtiyojli shaxslar uchun ta’lim: ta’lim olish imkoniyati va sifati” bo‘yicha Butunjahon konferensiyasida Salamanka deklaratsiyasi va “Alohida ehtiyojli shaxslarning ta’lim olishi bo‘yicha harakatlar asoslari” qabul qilindi.[4] Mazkur hujjatda barcha davlatlarga

ta’lim tizimini inklyuziv qilish zarurligiga ustuvor ahamiyat berish, huquqiy yoki siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida inklyuziv ta’lim tamoyilini kiritish, inklyuziv ta’lim faoliyati sohasida tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlik va tajriba almashinuvni rivojlantirish, inklyuziv ta’limning kasbiy jihatlarini rivojlantirishni moliyalashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilandi.

Xalqaro hujjatlarda belgilangan talablarni bajarishda, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda katta jonbozlik ko‘rsatib, keng ko‘lamli huquqiy islohotlar amalga oshirmoqda. Xususan, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishiga oid konstitutsiyaviy kafolat mustahkamlandi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 57-moddasida davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga ko‘maklashishi belgilandi. [1]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonunida inklyuziv ta’limga ta’rif berildi. Ushbu qonunning 20-moddasiga muvofiq inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ta’lim shaklidir.[2]

Qonunda belgilangan ta’rifga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’limning barcha ta’lim oluvchilar, ya’ni sog‘lom yoki nogironligi bo‘lishidan qat’i nazar teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadigan ta’lim shakli ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim bir qator mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan masala hisoblanib, qonunda berilgan ta’rifga nisbatan tarafdor hamda qarshi fikrlar bildirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni tadqiqotchilar, shu jumladan, xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham inklyuziv ta’lim tushunchasiga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emasligini ko‘rish mumkin. Masalan, S.Stubbs inklyuziv ta’lim deganda sifatli, dolzarb va mos ta’lim olish uchun universal huquqni ro‘yobga chiqarishga intiladigan keng ko‘lamli strategiyalar, faoliyatlar va jarayonlar tushunilishini qayd etgan. [5] Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan bildirilgan juda ham muhim fikr borki, inklyuziv ta’limda bola tizimga moslashishi emas, tizim bolaga moslashishi lozim. Mana shunday natijaga erishilganda ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash mumkin hisoblanadi.

Eynskou, But va Dayson kabi olimlarning fikricha, “inklyuziv ta’lim barcha bolalar uchun rasmiy ta’limdan

foydalanish, ishtirok etish va unga tegishlilikni oshirishdir. U mazmun, yondashuvlar, tuzilmalar hamda strategiyalardagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga olib, ular tegishli yosh oralig‘idagi barcha bolalarni o‘z ichiga oladi va barcha bolalar uchun ta’lim muntazam tizimning mas’uliyati hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim barcha ta’lim oluvchilar uchun umumiy ta’lim maktablari sifatini oshirishga qaratilgan”.

Lani Florian esa inklyuziv ta’limni barcha ta’lim oluvchilarni, ularning xususiyatlari, kelib chiqishi va farqlaridan qat’i nazar, maktab hamjamiyatining qadrli a’zosi sifatida kutib olish va qabul qilish, deb ta’riflaydi.[6] Ushbu olimning qayd etishicha, u barcha ta’lim oluvchilarning turli xil ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun ta’lim muhitini, o‘quv dasturi va o‘qitish usullarini qayta qurishni, hamkorlikda o‘rganishga ko‘maklashishni va har bir talabaning faol ishtirokini rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.

Farrell, Eynskou va Frankxem tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, “inklyuziv ta’lim xilma-xillikni qadrlaydigan, faol ishtirok etish va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rag‘batlantiradigan hamda barcha ta’lim oluvchilarda daxldorlik tuyg‘usini uyg‘otadigan, har bir talabaning bilim olishi va farovonligini qo‘llab-quvvatlaydigan o‘quv hamjamiyatini yaratishdan iboratdir”.[7]

Milliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bildirilgan fikrlarda ham turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotchi B.Ismoilov tomonidan inklyuziv ta’lim tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Inklyuziv ta’lim – nogironligi bo‘lgan shaxslarni teng huquqlilik tamoyili asosida qo‘shimcha shart-sharoitlar yordamida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta’lim muassasalarida bilim olishini ta’minlovchi ta’lim shaklidir.

Bizningcha, B.Ismoilov tomonidan berilgan mazkur ta’rifga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki mutaxassis birinchidan, inklyuziv ta’limni nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan ta’lim sifatida, ikkinchidan, faqat umumta’lim muassasalarida bilim olishni ta’minlovchi ta’lim shakli sifatida qayd etgan. [11]

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra nogironligi bo‘lgan shaxs – bu ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj **barqaror** jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxsdir. Ya’ni nogironligi bo‘lgan shaxs doimiy ravishda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqson bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 50-moddasida belgilan norma esa alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishini nazarda tutgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasida ham inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ta’lim ekanligini belgilagan.

Individual imkoniyatning cheklanishi turlicha ko‘rinishda, turli muddatga bo‘lishi mumkin. Masalan, harakatlanish bilan bog‘liq imkoniyat shaxsda barqaror ravishda butun hayoti davomida cheklangan bo‘lishi yoki oyoqlarning sinishi hisobiga turli muddatga normal harakatni cheklashi mumkin. Ikki holatdayam shaxsning ehtiyoji bir xil bo‘lishi mumkin. Lekin bu ehtiyoj bir holatda ta’lim olishning butun davri mobaynida mavjud bo‘lsa, ikkinchi holatda muayyan vaqt o‘tishi (singan oyoqning tuzalishi) bilan barham topishi mumkin. Fikrimizcha, inklyuziv ta’lim mazkur ikki holatdagi ta’lim oluvchilarni ham nazarda tutib, ularni sog‘lom ta’lim oluvchilar bilan bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashi lozim. Shu sababli B.Ismoilovning inklyuziv ta’lim nogironlar uchun degan fikriga to‘liq qo‘shila olmaymiz.

Bundan tashqari, B.Ismoilov inklyuziv ta’limni umumta’lim muassasalarida tashkil etiladi degan fikriga ham qo‘shila olmaymiz. Sababi alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan shaxslar nafaqat umumta’lim muassasalarida, balki maktabgacha ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim muassasalarida ham barcha uchun teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutadi.

B.Ismoilovning fikriga o‘xshash fikr F.Toshpo‘latova tomonidan ham ilgari surilganligini ko‘rish mumkin. Uning fikricha ham inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog‘lom bolalar o‘qiydigan umumta’lim maktablarida ham ta’lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e’tirof etadi.[8] Inklyuziv ta’lim nafaqat maktablarda balki barcha ta’lim muassasalarida ham tashkil etiladi.

M.Axmadjonovaning fikricha esa, inklyuziv ta’lim — davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga, o‘z o‘rniga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.[9] Berilgan mazkur ta’rifga ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasida ta’lim tizimi keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra ta’lim tizimini davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari, ta’lim sifatini baholashni amalga

oshiruvchi tashkilotlar, ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalari, ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar tashkil etishi belgilangan. Demak bu tizimda inklyuzivlikka hech qanday qoidalar mavjud emasligi sababli inklyuziv ta’limni ta’lim tizimi sifatida qabul qilish qonun normasi mohiyatiga ko‘ra noto‘g‘ri hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi J.Bokiyev tomonidan berilgan fikrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tadqiqotchining fikricha, inklyuziv ta’lim – barcha ta’lim oluvchilarga – ham sog‘lom, ham nogironligi bo‘lgan ta’lim oluvchilarga moslashtirilgan, barcha ta’lim oluvchilarning ta’limga bo‘lgan o‘z huquqlaridan hech qanday to‘sqinliklarsiz foydalanishiga asoslangan ta’lim tizimidir”.[10] Muallif tomonidan berilgan ushbu tushunchada ham inklyuziv ta’limni tizimi ekanligini ko‘rish mumkin. Uning bu fikrini inkor etgan holda, barcha ta’lim oluvchilar, ham sog‘lom, ham nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirilgan ta’lim degan fikrni yoqlash mumkin.

Yuqorida inklyuziv ta’lim bo‘yicha olib borilgan bir qator tadqiqotlarda bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, inklyuziv ta’limga quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

Inklyuziv ta’lim – *individual imkoniyatlari cheklangan shaxslarning bunday cheklov bo‘lmagan sog‘lom ta’lim oluvchilar bilan bir xil ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan ta’lim prinsipidir.*

Ushbu ta’rifda ko‘rishimiz mumkinki, inklyuziv ta’lim yuqoridagi olimlar tomonidan berilgan fikrlardan farqli ravishda ta’lim tizimi, ta’lim shakli sifatida emas, balki ta’lim prinsipi sifatida qayd etildi. Chunki biz inklyuziv ta’limni ta’lim shakli deb ayta olmaymiz. Haqli e’tiroz bildirish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasida ta’lim olish shakllari sifatida inklyuziv ta’lim qayd etilgan. E’tiborli jihati ta’lim shakllari bo‘lgan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy) ta’limlar kabi inklyuziv ta’limda alohida mazkur ta’lim shakli uchun qabul kvotalari belgilanmaydi, qabul amalga oshirilmaydi. Inklyuziv ta’limning mohiyatiga ko‘ra bunday qilinmasligi ham bir jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki bunday ta’lim alohida ajratishga emas, balki bunday alohida o‘qitishni inkor etib birgalikda farqlarsiz o‘qitishni nazarda tutadi.

Inklyuziv oliy ta’lim masalasini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilanishicha, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Mazkur normani tahlil qilish natijasida davlatning inklyuziv

ta’lim siyosati ko‘proq maktab yoshidagi bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Sababi, yuqorida keltirib o‘tilgan 20-moddada jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar shunday nuqsonlarga ega bo‘lgan shaxslardan alohida bayon qilingan.

Bundan tashqari, qonunning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limga bag‘ishlangan 9-moddasida inklyuzivlikni ta’minlashga oid alohida norma belgilangan bo‘lsa-da, professional ta’lim va oliy ta’limga oid moddalarda inklyuzivlikni ta’minlash to‘g‘risida biror-bir norma mavjud emas.

Lekin tadqiqotchi B. Ismoilov nogironligi bo‘lgan yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlab beradigan aniq mexanizmlarni aks ettirgan huquqiy asoslar yetarlicha deb e’tirof etgan[1]. Tadqiqotchi J.Bokiyev esa, B.Ismolovning fikrlariga qo‘shilmagan holda tadqiqotchi tomonidan ko‘rsatilgan huquqiy asoslar ham faqatgina ko‘zi ojiz fuqarolarni oliy ta’limga qabul qilish tartibiga oid normalar aks etgan asoslar xolos. Ta’lim jarayonidagi asosiy masala faqat o‘qishga qabul qilish emas, balki o‘quv jarayonlarini tashkil etish hamdir deb ko‘rsatgan[2]. Bizning fikrimizcha ham bu yerda J.Bokiyevning fikrlari o‘rinli hisoblanadi. Haqiqatan ham qonunchilik normalarimiz, ilmiy tadqiqotlar inklyuziv ta’limni asosan, umumta’lim maktablari doirasida nazarda tutgan.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tizimli ravishda o‘rganish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, inklyuziv ta’lim universal yondashuvga asoslanib, ta’lim oluvchilarni ajratmasdan, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda nogironligi bo‘lgan va bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish ustuvor vazifa hisoblanadi. S.Stubbs tomonidan ta’kidlanganidek, “inklyuziv ta’lim sifatli, dolzarb va mos ta’lim olish uchun universal huquqni ro‘yobga chiqarishga intiladigan keng ko‘lamli strategiyalar, faoliyatlar va jarayonlar”ni o‘z ichiga oladi. Mazkur universal yondashuv inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarni alohida guruhga ajratmaydigan, balki xilma-xillikni qadrlaydigan, individual o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga oladigan yaxlit ta’lim prinsipi sifatida namoyon etadi. Bu o‘z navbatida ta’limning barcha bosqichlarida ta'minlanishi zarur bo‘lgan prinsipial yondashuvni ifodalaydi.

Ikkinchidan, inklyuziv ta’lim ta’lim oluvchilarga emas, balki ta’lim tizimining o‘ziga transformatsion talablar qo‘yadi. Ushbu xususiyat tadqiqotchi

[1] *Ismoilov B.S.* O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: ta’lim tizimi misolida / y.f.f.d. diss. – T., 2023. – 88-b.

[2] *Bokiyev J.N.,* O‘zbekistonda raqamlashitirish sharoitida ta’lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta’lim misolida)/ y.f.f.d,. – T., 2024, 87-b.

S.Stubbsning “inklyuziv ta’limda bola tizimga moslashishi emas, tizim bolaga moslashishi lozim” degan konseptual qarashida o‘z aksini topgan. Bu jarayonda ta’lim muhiti, o‘quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar va o‘qitish metodikalarining ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilishi talab etiladi. Ta’lim tizimiga qo‘yiladigan bunday transformatsion talablar qator tadqiqotchilar, jumladan, Lani Florian tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, u “ta’lim muhitini, o‘quv dasturi va o‘qitish usullarini qayta qurishni” alohida ta’kidlaydi. Bu jihat inklyuziv ta’limning shakl emas, balki prinsip ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi, chunki u ta’limning barcha shakllari va bosqichlarida amal qilinishi zarur bo‘lgan yondashuvni ifodalaydi.

Uchinchidan, inklyuziv ta’lim individual imkoniyatlari cheklangan shaxslarning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, ularga vaqtinchalik yoki doimiy ravishda cheklovlarga ega bo‘lgan shaxslarni qamrab oladi. Bu kontekstda nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan bir qatorda, vaqtinchalik imkoniyati cheklangan shaxslar ham teng huquqli ta’lim subyektlari sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida ham bu jihat o‘z ifodasini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g'risida’gi Qonunining 20-moddasida inklyuziv ta’lim “alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta’lim shakli” sifatida e’tirof etilgan. Bu ta’rifda “individual imkoniyatlarning xilma-xilligi” atamasi ishlatilishi bejiz emas, chunki u nogironlik tushunchasidan kengroq bo‘lib, turli ko‘rinishdagi va tabiatga ega bo‘lgan individual cheklovlarni qamrab oladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, yagona xulosada aytish mumkinki, inklyuziv ta’limning o‘ziga xos jihatlari uning universal xususiyatga egaligi, ta’lim tizimi transformatsiyasini talab etishi hamda individual imkoniyatlari cheklangan barcha shaxslarni qamrab olishida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, kirimizcha, inklyuziv ta’limni ta’lim tizimi yoki shakli sifatida emas, balki ta’limning barcha bosqich va ko‘rinishlarida amal qilinishi zarur bo‘lgan universal ta’lim prinsipi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145#-6445772
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
3. Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов. Приняты резолюцией 48/96 Генеральной

Ассамблеи от 20 декабря 1993 года. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disabled.shtml
4. «Саламанкская декларация» и «Рамки действий по образованию лиц с особыми потребностями». Всемирная конференция по образованию лиц с особыми потребностями: доступ и качество (Саламанка, Испания, 7–10 июня 1994 года). URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/salamanka.pdf
5. Stubbs S. Inclusive education //Where there are few resources. Oslo, The Atlas Alliance Publ. – 2008. pp 8
6. *Florian, L.* (2008). Special education needs and inclusive education: An Overview of Contexts and Concepts. European Journal of Special Needs Education, 23(2), pp. 109-120.
7. *Farrell, P., Ainscow, M., & Frankham, J.* (2007). Making Special Education Inclusive: From Research to Practice. London: Routledge. P.103.
8. Toshpo‘latova F., O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning joriy qilinishi. https://library.ziyonet.uz/uz/book/5956
9. Mahliyo A. O ‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM //Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Т. 10. – №. 1. – С. 270-272.
10. *Bokiyev J.N.,* O‘zbekistonda raqamlashitirish sharoitida ta’lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta’lim misolida)/ y.f.f.d,. – T., 2024, 84-b.
11. *Ismoilov B.S.* O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: ta’lim tizimi misolida / y.f.f.d. diss. – T., 2023. – 88-b.